

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

FOZILOV XAMIDULLO XIKMATOVICH

**SAMARQAND VILOYATIDA AHOLI MIGRATSIYASI VA UNING
HUDUDIIY XUSUSIYATLARI**

11.00.02 - Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по географическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on geographical sciences**

Fozilov Xamidullo Xikmatovich

Samarqand viloyatida aholi migratsiyasi va uning hududiy xususiyatlari..... 3

Фозилов Хамидулло Хикматович

Миграция населения в Самаркандской области и ее территориальные
особенности..... 23

Fozilov Xamidullo Xikmatovich

Population migration and its territorial characteristics in the Samarkand region... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

FOZILOV XAMIDULLO XIKMATOVICH

**SAMARQAND VILOYATIDA AHOLI MIGRATSIYASI VA UNING
HUDUDIIY XUSUSIYATLARI**

11.00.02 - Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Gr198. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tojiyeva Zulxumor Nazarovna
geografiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich
iqtisod fanlari doktori, professor

Safarova Nasiba Irankulovna
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 5-iyun soat 10:⁰⁰dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 140104, Samarqand shahri. Universitet xiyoboni, 15-uy. SamDU bosh binosi 105-xona. Tel.: (+99866) 239-16-36, faks: (0366) 239-16-36; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 44-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel: (+99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 20-may kuni tarqatildi.
(2025-yil 10-may 11-raqamli reyestr bayonnomasi).



S.B.Abbasov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
g.f.d., professor

B.A.Meliyev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
g.f.f.d (PhD) dotsent

Q.S.Yarashev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, g.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mehnat migrantlarini yuboruvchi va qabul qiluvchi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bir qancha omillarning ta'siri yuqori bo'lib, uning mamlakatlar hududiy mehnat bozori va mehnat resurslari tarkibini shakllantirish, geodemografik jarayonlarni tartibga solish hamda aholini ish bilan bandligini ta'minlashdagi o'rni muntazam ravishda oshib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining hozirgi hisob-kitoblariga ko'ra, dunyoda 281 millionga yaqin xalqaro muhojir bor, bu esa butun dunyo aholisining 3,6 foiziga to'g'ri keladi¹. Ammo mojarolar, zo'ravonliklar, siyosiy yoki iqtisodiy beqarorlik, shuningdek, iqlim o'zgarishi va boshqa ofatlar tufayli o'z mamlakati ichida va tashqarisida ko'chib ketayotganlar soni ortib bormoqda. Ekspertlarning fikriga ko'ra, bu mamlakatlarda migrantlar sonining ortishiga ulardagi hududiy mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanganligi hamda turli malaka darajasidagi mehnat resurslariga bo'lgan talabning yuqoriligi sabab bo'lgan.

Jahonda migratsion jarayonlarni tartibga solish, samarali, oqilona va barqaror boshqarish vositalarini shakllantirish uchun umumiy yondashuv va strategiyalarni ishlab chiqish, harakatlarni muvofiqlashtirish va inson resurslarini safarbar qilishning ilmiy asoslarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar tarkibida aholi migratsiyasining hozirgi tendensiyalarini, uning zamonaviy mehnat bozori shakllanishiga ta'sirini o'rganish, migratsiya jarayonlarini tartibga solishning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, intellektual migratsiya va uning aholini ish bilan bandligiga ta'sirini aholi migratsiyasining muhim komponenti sifatida tadqiq etish hamda mehnat migratsiyasining iqtisodiy taraqqiyotga hududiy ta'sirini baholash bo'yicha kompleks tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda mehnat resurslarining harakatlanishi, aholining hududiy jihatdan harakatchanligi tendensiyalariga mos keluvchi va iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o'zgartirish sharoitlariga mutanosib yo'nalishlarini samarali amalga oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Ayni paytda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini muayyan mezonlar asosida baholashga davriy va uzluksiz tus bermog'imiz darkor. Jumladan, barqaror va mutanosib iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, iqtisodiy islohatlar samaradorligini hisobga olish va yangi ish o'rinlarini yaratish, ishsizlikni kamaytirish va mehnat bozori samaradorligini ta'minlashga alohida e'tiborni kuchaytirish zarur" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarning samarali hal etilishi aholini ish bilan samarali bandligini ta'minlashda davlatning migratsion siyosatini xalqaro tajriba va milliy xususiyatlar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2022-yil 1-martdagi "Xorijda vaqtincha mehnat

¹ World Migration Report 2024 // <https://worldmigrationreport.iom.int/what-we-do/foreword/foreword>

faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a‘zolarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-149-son, 2022-yil 15-sentabrda PQ-4829-son “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-apreldagi VM-222-son “2022-2026-yillarda Samarqand viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini amalga oshirishda foydalanilgan. Jumladan; migrantlarning yosh-jinsiy, ijtimoiy tarkibi va faoliyat turlari bo‘yicha bandligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, ularning hududiy tafovutlari bo‘yicha chora-tadbirlari qarori hamda boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy, axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish”, VIII.“Yer haqidagi fanlar” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Migratsiya masalalari so‘nggi yillarda olimlar va amaliyotchi mutaxassislarining diqqat markazida turibdi, bu esa bozor va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, demografik siyosatni takomillashtirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar bilan izohlanadi. Aholi migratsiya xususiyati, iqtisodiy, demografik va ijtimoiy jihatlari sohasidagi chet ellik olimlar, jumladan, J.Saymon, J.Xeffer, S.Staufer, M.Miller, S.Xeytman, G.Xyugo, M.Pulen, G.Simon, Fletcher Baragar va Harald Bauder, Ilka Steine, Iffath Unissa Syed, I.H.Burnley, A.Smith Adrian va boshqalarning asarlarida o‘rganilgan bo‘lib, ular dissertatsiya tadqiqotining nazariy va metodologik asosi hisoblanadi. Bugungi kunda Rossiya va MDHning qator mamlakat olimlari va mutaxassislaridan G.S.Vitkovskaya, S.V.Juravlev, J.Zayonchkovskaya, A.G.Zlotnikov, V.A.Ionsev, O.A.Ikonnikov, A.N.Kamenskiy, Ye.S.Krasins, Ye.S.Kubishin, V.F.Medvedev, V.V.Pochekina, P.M.Suprunovich, V.A.Tixonov, Ye.V.Tyurukanovaya va boshqalarning emigratsiya va majburiy migratsiya masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlari alohida diqqatga sazovordir.

O‘zbekistonda aholi migratsiyasi bilan bog‘liq muammolarga oid ilmiy tadqiqotlar L.P.Maksakova, R.A.Ubaydullayeva, K.X.Abdurahmonov, B.X.Umurzakov, Z.N.Tojiyeva, N.U.Arabov, Z.Ya.Xudoyberdiyev, G.K.Abdurahmonova, D.A.Artikova, D.N.Rahimova, N.X.Rahimova, N.K.Zokirova kabi olimlar tomonidan olib borilmoqda. Mamlakatimiz olimlarining aholi migratsiyasi muammolari bo‘yicha tadqiqot materiallari mavjudligiga qaramay, muammoning hududiy jihatlari yanada chuqurroq o‘rganishni taqozo etmoqda .

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan Oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Janubi-g‘arbiy

O'zbekiston geosistemalarini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy geografik xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Samarqand viloyatida aholi migratsiyasining hududiy xususiyatlarini aniqlash va ularga ta'sir etuvchi omillarni baholash hamda bu boradagi muammolarning yechimi bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

aholi migratsiyasining hududiy tafovutlari, ijtimoiy-iqtisodiy va geografik xususiyatlarini baholash hamda ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish;

aholi migratsiyasining Samarqand viloyati demografik vaziyati va hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganish;

Samarqand viloyati aholisining hududiy harakati, mehnat migrantlarining yosh, jinsiy tarkibi va ularning tarmoqlar tarkibidagi faoliyat turlariga oid kartalarini yaratish;

Samarqand viloyati aholisi, mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi va aholi migratsiyasiga oid ko'rsatkichlarining 2030-yilgacha bo'lgan prognoz parametrlarini ishlab chiqish;

hududlarda sotsiologik so'rovnoma o'tkazish orqali aholi migratsiyasining hududiy tafovutlari, yosh-jinsiy, ijtimoiy tarkibi va faoliyat turlari bo'yicha bandligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini aniqlash hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

Tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand viloyati aholisining migratsion jarayonlari olindi.

Tadqiqot predmeti esa Samarqand viloyatida aholi migratsiyasiga ta'sir etuvchi geografik omillarning hududiy xususiyatlarini o'rganishdan iboratdir.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida tizim-tarkib, taqqoslash, kartografik, tarixiy, iqtisodiy-matematik, ekstropolatsiya, statistik tahlil, tanlanma sotsiologik so'rovnoma, ArcGIS usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aholi migratsiyasidagi hududiy tafovutlar ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarga ko'ra baholangan va uning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ArcGIS dasturi asosida "Samarqand viloyati aholisining hududiy harakati" va "mehnat migrantlarining yosh, jinsiy tarkibi va ularning tarmoqlar tarkibidagi faoliyat turlari"ga oid 1:400000 masshtabdagi kartalari yaratilgan;

sotsiologik so'rovnoma o'tkazish orqali aholi migratsiyasining hududiy tafovutlari, yosh-jinsiy, ijtimoiy tarkibi va faoliyat turlari bo'yicha bandligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari o'rtasidagi aloqadorlik darajalari aniqlangan;

Samarqand viloyati aholisi soni, mehnat resurslari va aholi migratsiyasiga oid ko'rsatkichlarining 2030-yilgacha bo'lgan prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyati shahar va qishloq tumanlarining aholi migratsiyasiga oid hududiy tafovutlar baholangan va uning ilmiy-uslubiy asoslari ishlab chiqildi;

viloyati aholisi soni, mehnat resurslari va aholi migratsiyasiga oid ko'rsatkichlarining 2030-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi;

ArcGIS dasturi asosida aholisining hududiy harakati va mehnat migrantlarining ijtimoiy va ularning tarmoqlar tarkibidagi faoliyat turlariga oid 1:400000 masshtabdagi kartalari yaratildi;

aholi migratsiyasining hududiy tafovutlari, yosh-jinsiy, ijtimoiy tarkibi va faoliyat turlari bo'yicha bandligi aniqlandi hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi va uning hududiy boshqarmalari hamda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlaridan foydalanilganligi bilan asoslanadi. Asosiy natijalar respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati hududlarda migratsion jarayonlarni tartibga solishga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlarni tayyorlash, migratsiyaning hududiy harakatini aniqlash va takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, iqtisodiy geografiya fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, sohaga oid darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aholi migratsiyasi va uning hududiy xususiyatlarini baholash bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

aholi migratsiyasidagi hududiy tafovutlari ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarga ko'ra baholashlar va uning takomillashtirilgan ilmiy-uslubiy asoslariga oid ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalari vazirlik amaliyotida joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 6-dekabrda 01/00-03/10-12406-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekistonda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi aholini qo'llab-quvvatlash hamda ularning hududlarda mehnat migratsiyasi faoliyatini tashkillashtirish va mehnat migratsiyasi hududiy ko'lamini kengaytirish, hududlarni rivojlantirish va munosib turmush sharoitlarini barpo etishga qaratilgan hududiy davlat dasturlarini ishlab chiqish imkonini bergan;

ArcGIS dasturi asosida "Samarqand viloyati aholisining hududiy harakati" va "mehnat migrantlarining yosh, jinsiy tarkibi va ularning tarmoqlar tarkibidagi faoliyat turlari"ga oid 1:400 000 masshtabdagi ishlab chiqilgan kartalari vazirlik tizimidagi amaliyotda foydalanilib hududlarda mehnat migrantlarining o'zgarishi, aholini xorijiy davlatlarda ishga joylashtirish uchun kvotalar ajratish, ularning yosh, jinsiy tarkibiga oid ma'lumotlar qayta ishlash va noqonuniy migratsiyani oldini olishga oid mexanizmlarini takomillashtirish imkonini bergan (O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 6-dekabrda 01/00-03/10-12406-son ma'lumotnomasi). Natijada, viloyat shahar va tumanlarining aholi migratsiyasiga oid hududiy tafovutlari va uning ilmiy-uslubiy asoslariga qaratilgan taklif hamda tavsiylari tashqi va ichki mehnat migratsiyasini monitoring qilishning samarali tizimini ishlab chiqishda, so'ngra barcha

migratsiyaga oid xizmatlar ko'rsatish sohasini elektron formatga o'tkazish tadbirlarini amalga oshirish imkonini bergan;

sotsiologik so'rovnoma o'tkazish orqali aholi migratsiyasining hududiy tafovutlari, yosh-jinsiy, ijtimoiy tarkibi va faoliyat turlari bo'yicha bandligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari o'rtasidagi aniqlangan natijalari vazirlikning migratsiya agentligi bo'limida amaliyotga joriy qilindi (O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 6-dekabrda 01/00-03/10-12406-son ma'lumotnomasi). Natijada, vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga jo'natish maqsadida xorijiy mamlakatlarning mehnat bozorini o'rganishda, xorijiy ish beruvchilarni topishda, xorijiy ish beruvchilar va xususiy agentliklar bilan shartnomalar tuzishga oid vazifalarni bajarish imkonini bergan;

Samarqand viloyati aholisi soni, mehnat resurslari va aholi migratsiyasiga oid ko'rsatkichlarining 2030-yilgacha ishlab chiqilgan prognoz ma'lumotlaridan vazirlik amaliyotida joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 6-dekabrda 01/00-03/10-12406-son ma'lumotnomasi). Natijada, bu borada hududlardagi mehnat migrantlari sonini aniqlash, mamlakatda doimiy yashash uchun ruxsatnomalar, emigrantlar soni va hududlardan migrantlar boruvchi asosiy mamlakatlarga oqimlar, istiqbolda yuzaga keladigan mehnat migratsiyasi ko'rsatkichlarini aniqlashga oid vazifalarni bajarish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, 4 ta OAK ro'yxatidagi ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar va xalqaro miqyosda faoliyat ko'rsatadigan ma'lumotlar bazasida ro'yxatdan o'tgan ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 132 bet bo'lib, uning 120 beti matn qismidan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida O'zbekiston Respublikasi va jahonda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar asosida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti ifodalangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalar bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi, chop etilgan natijalar va dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "Geografik tadqiqotlarda aholi migratsiyasining tadqiq etilishining nazariy asoslari" deb nomlanib, unda

geografik tadqiqotlarda aholi migratsiyasining o'rganilishining ilmiy-nazariy masalalari, migratsiya va mehnat bozori o'rtasida o'zaro aloqadorlik va ularning tasnifi, aholi migratsiyasining hududiy tashkil etilishida xorij tajribasi, O'zbekistonda aholi migratsiyasining ijtimoiy-hududiy jihatlari o'rganildi va takomillashtirildi.

Hozirgi zamondagi migratsiya butun dunyoda turli shaklda namoyon bo'lmoqda, biroq bir mamlakatdan boshqa mamlakatga kishilarning ko'chib yurishi sabablari hali ham noaniqligicha qolmoqda. Albatta, migrant birinchi navbatda, o'z daromadini (ish haqini) oshirish, mehnat shart-sharoiti va hayoti hamda faoliyatini yaxshilashga intiladi, degan taxminlar mavjud. Migrantlar nuqtay nazaridan ko'chib yurish va foydalilikning yuqoriroq darajasiga erishish istagi kabi iqtisodiy omillar eng muhimdir. Aholining mehnat migratsiyasiga doir ilmiy qarashlar iqtisodiy, geografik, tarixiy, demografik, tizim, siyosiy va boshqa yondashuvlar doirasida shakllanmoqda. Yondashuvni tanlash tadqiqotchilar oldida turgan vazifalarga va dastlabki material xarakteriga bog'liq.

"Migratsiya" so'zi lotincha "migro" o'tmoq, ko'chmoq, "migratio" ko'chish ma'nosini beradi. Yoqub Biyyak tomonidan taklif etilgan va Xanya Zlotnik ishlanmasiga mos keluvchi migratsiya nazariyalari tasnifiga ko'ra, migratsiya nazariyalarining asosiy guruhlar iqtisodiy, sotsiologik, geografik va aralash guruhlardir. Omillarning har bir tasnifi tadqiqotchi o'z oldiga qo'ygan muayyan vazifaga asoslangan. Omillarning migratsiya jarayonlariga ta'sirini boshqarish imkoniyatlari bo'yicha tasniflar eng keng tarqalgan tasniflar hisoblanadi. Boshqariladigan (tartibga soluvchi omillar), boshqarilmaydigan (shart-sharoit omillari) va boshqarilmaydigan, biroq bilvosita tartibga solinuvchi omillar ajratib ko'rsatiladi. Iqtisodchi olimlar G.K. Abdurahmonova, Z.Ya. Xudoyberdiyev, Sh.R. Xolmo'minov, N.K. Zokirova, B.X. Umurzakov va V.A. Goleshevning fikricha, migratsiyaning barcha omillarini shartli ravishda quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin: 1) o'ziga tortuvchi omillar, ular hududda qulay tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni o'z ichiga oladi, bu u yerga aholining ko'chib kelishiga ko'maklashadi, 2) chiqarib yuboruvchi omillar, ular hududdagi murakkab yoki boshqa yashab bo'lmaydigan holatni belgilaydi, bu tabiiy va iqtisodiy shart-sharoitlar bilan ifodalanadi. Ko'rib chiqilgan omillar ko'pincha bir vaqtda yuz beradi, biroq birinchi navbatdagi ahamiyat birinchi guruh omillariga xos. Ikkinchi guruhdagi omillarning ahamiyati oshsa, migratsiya noilojlikdan yuz beradi. Birinchi guruhda doim amal qiluvchi va o'zgaruvchan, vaqt bo'yicha o'zgarib boruvchi parametrlarga ega omillar ajratib ko'rsatiladi. Aholining ko'chishi to'g'risida qaror qabul qilish jarayonidagi o'zgarishlar migratsiyani boshqarish maqsadida yuz beradi. Yashash sharoitlarini qabul qilishga yoki ko'chib boradigan hududdagi bahoga ta'sir etuvchi mavjud hayotiy standart jiddiy va kishilarning ko'chish to'g'risidagi qaroriga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi subyektiv omillarga taalluqli. Ilmiy adabiyotlarda hayotiy standartni tashkil etuvchi omillar majmui va migratsiyaning etnik omillari tenglashadi. Aholi migratsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning guruhlariga bo'lingan, O.D.Vorobyova va A.V.Topilin tomonidan taklif etilgan tasnifi quyidagi ko'rinishga ega:

iqtisodiyot va sanoat jihatidan rivojlanganlik darajasi bo'yicha mamlakat va

hududlarning toifalanishi;

donor mamlakatda milliy darajada ish haqi miqdorlarining farq qilishi, aholi soni ko'pligi, ishsizlik yuqori darajada ekanligi;

kapital va tovarlarning xalqaro harakati, xalqaro mehnat bozori, xalqaro korporatsiyalar va hokazolar dinamikasi.

Ta'kidlash lozimki, aholi migratsiyasi omillari hozirgi bozor iqtisodiyotida rejali iqtisodiyotda bo'lgani kabi joy va vaqtga qarab o'z ahamiyatini o'zgartirgan holda umumiy harakat qiladi. Bu omillar to'plami barcha holatda turlicha bo'lishi mumkin bo'lishiga qaramay, ichki, tashqi va ixtiyoriy, majburiy migratsiyada ham dolzarb hisoblanadi. Bu yerda faqat majburiy migratsiya istisno hisoblanadi.

Mehnat migratsiyasining jiddiy toifalarini aniqlashga doir nazariy yondashuvlar va ushbu ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning asosiy iqtisodiy nazariyalari sharhi sarhisob qilinsa, mehnat migratsiyasini o'rganishdagi boshqa ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish bir chekkaga qo'yilsa, biz taqdim etgan tasnif ayrim xulosalar qilish imkonini beradi.

Birinchidan, u O'zbekiston Respublikasidagi mehnat migratsiyasi ko'plab fan obyekti bo'lgan jamoat hodisalaridan biri ekanligini yaqqol ko'rsatmoqda. Uni tahlil qilish o'rganishning kompleksligini nazarda tutadi. Bundan tashqari, mehnat resurslari migratsiya harakati emas, balki uning ayrim tur va toifalari bu fanlarning bevosita predmeti ekanligini qayd etish juda muhimdir.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasida migratsiya harakatlarining qanday turlari haqida so'z bormasin, pirovardida ularning katta qismi iqtisodiy zarurat bilan izohlanadi va ma'lum darajada mehnat bozori bilan bog'liq. Shu bilan birga, bu migratsiya harakatlarining barcha turlari va toifalari iqtisodiyot fanining bevosita predmeti ekanini anglatmaydi. Faqat iqtisodiy migratsiya, avvalo, respublikada ishchi kuchi migratsiyasi iqtisodiyot fanining bevosita predmeti hisoblanadi.

Biroq fikrimizcha, tadqiqotni davom ettirish uchun ishchi kuchi migratsiyasi talqinining tor yondashuviga tayanish zarur ekanini qayd etish kerak. Bu "mehnat migratsiyasi" tushunchasiga ham, "mehnat migranti" ta'rifiga ham taalluqli. Bunday yondashuv doirasida mehnat migratsiyasi O'zbekiston Respublikasidagi mehnat resurslari ko'chishining vaqtinchalik xususiyati hisoblanadi. Ishchi kuchi migratsiyasining uni beruvchi va qabul qiluvchi davlatlar iqtisodiyoti ta'siri oqibatlarini aniqlash uchun nazariy yondashuvlardan foydalanishda mehnat bozori, milliy inson kapitalini shakllantirish va iqtisodiy taraqqiyotga taalluqli yondashuvlargagina tayanish kerak.

Jahonda mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilish va migratsion jarayonlarni samarali, oqilona va barqaror boshqarish vositalarini shakllantirish uchun umumiy yondashuv va strategiyalarni ishlab chiqish, harakatlarni muvofiqlashtirish va inson resurslarini safarbar etish bo'yicha ilmiy asoslarni tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar tarkibida mehnat migratsiyasining zamonaviy tendensiyalari, uning zamonaviy mehnat bozori shakllanishiga ta'sirini o'rganish, migratsiya jarayonlarini tartibga solishning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, intellektual migratsiya va uning aholini ish bilan bandligiga

ta'sirini mehnat migratsiyasining muhim komponenti sifatida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval.

Mehnat migrantlari keladigan mamlakat uchun xorijiy mehnat resurslaridan foydalanish oqibatlari

Ijobiy oqibatlar	Salbiy oqibatlar
Mehnat bozori uchun oqibatlar	
Ishchi kuchi taqchilligi muammolarini kamaytirish	Mahalliy xodimlar ish haqi kamayishiga sabab bo'luvchi mehnat bozoridagi demping.
Migrantlarning uy xo'jaligidagi bandligi, ayollarning bandligiga ko'maklashadi	Mahalliy aholi orasida ishsizlik oshishi va malakasizroq xodimlarning marginallashuvi
Kichik biznes va tadbirkorlikda bandlikni oshirish	Mehnat bozorining ayrim sektorlari kriminallashuvi
Malakasiz ishlarda bandlikni ta'minlash.	Hudud mehnat bozorida "migratsiya an'analari"ning vujudga kelishi
Migrantlarning iqtisodiyotning "obro'siz" sohalarida band bo'lishi mahalliy xodimlarning vertikal mobilligiga ko'maklashadi	
Inson kapitali rivoji uchun oqibatlar	
Yosh va malakali xodimlarni tanlab olish orqali ishchi kuchi sifatini oshirish (yuqori malakali ishchi kuchi segmentida).	Malakasi past ishchi kuchi ko'p bo'lganda va o'rnini bosish tendensiyalari mavjud bo'lganda milliy inson kapitali umumiy darajasi pasayadi
	Qashshoqlikning oshishi (ish yo'qotishi sababli migrant deklaratsiya qilinganda).
Tashqi iqtisodiy faoliyat uchun oqibatlar	
Mehnat resurslarini qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiy subyektlari bilan qo'shma korxonalar soni oshishi	Mehnat resurslarini eksport qiluvchi mamlakat va qabul qiluvchi mamlakat o'rtasida tovar aylanmasini oshirish

Jahonda mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilish va migratsion jarayonlarni samarali, oqilona va barqaror boshqarish vositalarini shakllantirish uchun umumiy yondashuv va strategiyalarni ishlab chiqish, harakatlarni muvofiqlashtirish va inson resurslarini safarbar etish bo'yicha ilmiy asoslarni tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar tarkibida mehnat migratsiyasining zamonaviy tendensiyalari, uning zamonaviy mehnat bozori shakllanishiga ta'sirini o'rganish, migratsiya jarayonlarini tartibga solishning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, intellektual migratsiya va uning aholini ish bilan bandligiga ta'sirini mehnat migratsiyasining muhim komponenti sifatida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda migrantlar soni keskin ortib borayotgan Turkiya davlatida mehnat qiluvchilar asosan Toshkent shahri (23,2 %), Toshkent (17,9 %), Andijon (15,9 %) va Samarqand (15,2 %) viloyatlari fuqarolari hissasiga to'g'ri keldi. Janubiy Koreyaga borib mehnat qilganlarning aksariyat qismi, ya'ni 40 % – Toshkent viloyati va 23,5 % – Toshkent shahri aholisi bo'lganligi o'tkazilgan suhbatlarda aniqlandi. O'rganishlar davomida uzoq xorijga borgan migrantlarning yarmidan ortig'i (53,6%) Toshkent shahridan bo'lganligi kuzatildi. Tashqi mehnat

migratsiyasini tartibga solishga oid davlat siyosati natijasida so‘nggi yillarda uzoq xorijda mehnat qiluvchi migrantlar soni ortib bormoqda va buni 2-jadvalda ko‘rsatilgan dinamikada kuzatish mumkin.

2-jadval.

So‘nggi 3 yil mobaynida mehnat qilish maqsadida xorijga borish to‘g‘risida ma’lumot, % hisobida

№	Hududlar	Rossiya	Qozog‘iston	Turkiya	Janubiy Koreya	Boshqa davlatlar
	O‘zbekiston Respublikasi	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2,2	29,5	0,0	2,9	0,0
2	Andijon	12,1	4,0	15,9	5,9	1,8
3	Buxoro	7,3	1,3	5,3	0,0	3,6
4	Jizzax	3,8	1,3	7,3	8,8	3,6
5	Qashqadaryo	12,9	6,2	0,0	2,9	1,8
6	Navoiy v	3,9	2,6	4,0	8,8	1,8
7	Namangan	8,6	12,3	1,3	0,0	3,6
8	Samarqand	11,6	1,3	15,2	0,0	17,9
9	Surxondaryo	7,0	0,4	1,3	0,0	0,0
10	Sirdaryo	4,0	4,4	2,6	0,0	5,4
11	Toshkent	5,7	11,5	17,9	41,2	5,4
12	Farg‘ona	9,3	16,7	4,0	0,0	1,8
13	Xorazm	8,2	4,4	2,0	5,9	3,6
	Toshkent	3,4	4,0	23,2	23,5	53,6

Manba: Samarqand tashqi migratsiya agentligi ma’lumoti asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O‘zbekistonda mehnat resurslarining harakatlanishi, aholini ichki va tashqi mehnat bozori nuqtayi nazaridan harakatchanligi tendensiyalariga mos keluvchi va iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish sharoitlariga mutanosib yo‘nalishlarini samarali amalga oshirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Mehnat migratsiyasi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, fuqarolarni xorijiy mamlakatlarda ishga joylashtirishning mexanizm va shakllari, mehnat migrantlari bilan ishlash sohasidagi diplomatik vakolatxonalarning asosiy faoliyat yo‘nalishlarini ishlab chiqish, xorijda O‘zbekiston fuqarolarining shaxsiy xavfsizligi va ularning ijtimoiy himoyasini ta’minlash” bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarning samarali hal etilishi aholining ish bilan samarali bandligini ta’minlashda davlatning migratsion siyosatini xalqaro tajriba va milliy xususiyatlar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Samarqand viloyatida aholi migratsiyasi va uning demografik vaziyatga ta’siri”** deb nomlangan. Unda viloyat aholisi migratsiyasini keltirib chiqaruvchi omillar va sharoitlar, Samarqand viloyatida aholi ichki va tashqi migratsiyasining hududiy xususiyatlari, viloyat demografik tarkibi va demografik rivojlanishida aholi migratsiyasining roli ochib berilgan.

Samarqand viloyat aholisi sonining o‘shishiga faqatgina aholining tug‘ilishi va tabiiy o‘sishi ta’sir etmasdan, balki aholining mexanik harakati, yashash joyini o‘zgarishi ham ta’sir ko‘rsatadi. Aholi migratsiyasi bu ijtimoiy jarayon bo‘lib, u ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi va aholi sonining o‘shishi bilan bevosita

bog'liq. Migratsiya aholining joylashuvi va uning hududiy tarkibiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, aholi migratsiyasi chuqur geografik jarayon hisoblanib, regionlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sharoitida ichki farqlarni ifodalaydi. Migratsiya ishlab chiqarishning hududiy tarkibi va aholi joylashuvi o'rtasidagi munosabatlarga qulay sharoit yaratishga katta ta'sir ko'rsatadi. Samarqand viloyati o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan demografik hudud hisoblanadi.

Yuqorida aytilgandek, viloyat aholi sonining o'sishi asosan tabiiy o'sishning yuqoriligi bilan belgilanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 1979-1993-yillarda keluvchilar soniga nisbatan ketuvchilar soni ko'p. Viloyatda 1991-2004-yillar mobaynida ko'chib ketganlar soni ko'chib kelganlarga nisbatan 90% dan yuqori bo'lgan.

3-jadval.

Samarqand viloyati aholisining migratsiya intensivligi (‰ hisobida).


Tumanlar nomi	1979		1991		2024	
	kelganlar	ketganlar	kelganlar	ketganlar	kelganlar	ketganlar
Viloyat bo'yicha	6,0	7,3	9,5	11,6	3,0	4,0
Samarqand sh.	23,0	24,8	21,0	33,7	4,5	6,8
Kattaqo'rg'on sh.	34,5	39,0	27,9	41,5	6,1	7,8
Tumanlar:						
Oqdaryo	7,0	12,6	14,4	15,2	4,6	3,7
Bulung'ur	10,0	12,4	6,2	9,2	4,8	5,3
Jomboy	0,1	0,2	20,3	20,7	4,4	3,5
Ishtixon	0,1	0,4	3,8	6,5	3,1	4,5
Kattaqo'rg'on	8,2	10,5	8,9	7,8	3,6	3,9
Qo'shrabot	1,0	1,7	4,3	6,4	4,8	4,5
Narpay	2,7	0,4	9,3	7,2	2,9	3,1
Nurobod	5,1	2,9	8,2	10,2	0,4	2,7
Payariq	0,7	1,1	4,3	6,3	0,2	4,8
Pastdarg'om	2,3	6,1	10,0	9,5	1,3	2,2
Paxtachi	0,2	3,2	4,6	4,9	2,1	6,1
Samarqand	1,8	1,7	4,8	5,0	4,0	4,6
Tayloq	-	-	-	-	3,8	2,3
Urgut	0,4	1,0	3,4	3,6	0,9	1,6

Jadval statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yaqin viloyat migratsiya tarixiga nazar tashlasak, 2005-2024-yillarda esa ko'chib kelganlar soni pasayib, ko'chib ketganlar soni 40%dan oshdi. Oxirgi 20-30 yil davomida aholi migratsiyasi viloyat aholisining umumiy soniga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Masalan, 1991-yil viloyatda 27,8 ming kishi, 1992-yilda 20,6 ming kishi ketgan bo'lsa, shu yillarda ketganlar soni 36,5 va 32,7 ming kishini tashkil etgan. 2010-2024-yillarda esa kelganlar soni o'rtacha 12,6 ming kishini, ketganlar soni o'rtacha 16,1 ming kishiga teng bo'lgan. Ko'rinib turibdiki, 1991-1992-yillarga qaraganda 2010-2024-yillarda keluvchilar soni kamayib ketgan.


Samarqand viloyati aholisining migratsiya intensivligi sovetlar davri, mustaqillik yili boshi va hozirgi vaqtda kelganlar va ketganlar promille hisobida

ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasi shuni ko‘rsatadiki, 1979-yilda Samarqand viloyati va tumanlarida aholi migratsiyasi ko‘rsatkichlari baland emas, faqat bu yilda Samarqand va Kattaqo‘rg‘onda migratsiya nisbatan yuqori bo‘lgan. 1991-yilga kelib, viloyatning barcha shahar va tumanlarida mexanik harakat kuchaygan. Masalan, Samarqand viloyatida kelganlar 9,5⁰/₀₀, ketganlar 11,6⁰/₀₀, Samarqand shahrida 21⁰/₀₀ va 33,7⁰/₀₀ ni tashkil etadi. Tumanlar ichida kelganlar salmog‘i Jomboy, Oqdaryo va Pastdarg‘omda nisbatan yuqori bo‘lib, Ishtixon va Urgut tumanlarida bu ko‘rsatkich ancha past hisoblanadi. Bu yili qaysi tumanlarda kelganlar salmog‘i yuqori bo‘lsa, ketganlar salmog‘i ham shu tumanlarda yuqoridir. 2024-yilga kelib, butun viloyatimiz shahar va tumanlarida aholi mexanik harakati intensivligi, oldingi yillarga qaraganda ancha pasaygan.



1-rasm. Samarqand viloyati mehnat resurslari balansi va tashqi migratsiyaning hududiy tafovutlari karta-sxemasi

Samarqand viloyati aholi migratsiyani ham tartibga solish va boshqarishning umumtizimli mexanizmida ta'sir ko'rsatishning yo'nalishlarini ishlab chiqish zarurati iqtisodiy taraqqiyotning aniq bosqichida mamlakatda yuzaga kelgan migratsion vaziyatdan kelib chiquvchi muammolarni hal etish, ularning sabablarini bartaraf etish ehtiyoji bilan bog'liq. Ushbu muammolar migrantlar, migratsion oqimlar, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarining muammoli bir turdagi guruhlar kesimida axborotni tahlil qilish orqali aniqlanadi. Bunday yondashuv, fikrimizcha, relevantlik, o'zaro bog'liqlik va mehnat resurslarini boshqarish tizimidagi muammoli yondashuv tamoyillariga amal qilinishini ta'minlaydi.



2-rasm Samarqand viloyati mehnat migrantlarining yosh tarkibi karta-sxemasi

Viloyatning tumanlar darajasidagi hududiy tafovutlari bo'yicha Samarqand viloyatining turli hududlari bo'yicha xorijga ishlashga ketgan fuqarolarning soni aniq berilgan. Masalan, Samarqand shahri bo'yicha 58 993 kishi xorijda ishlashga ketgan bo'lsa, Kattaqo'rg'on shahridan 9 881, Bulung'ur tumanidan 11 888 kishi ketgan. Toyloq tumanidan esa eng ko'p - 32 838 kishi xorijda ishlamoqda. Ushbu raqamlar Samarqand viloyatida mehnat migratsiyasi yuqori ekanligini ko'rsatadi, ayniqsa, yoshlar orasida xorijda ish topish tendensiyasi kuchli. Migratsiya qilingan sohalar orasida xizmat ko'rsatish va servis yetakchilik qilmoqda, bu esa mehnat migratsiyasining iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini tahlil qilishni talab qiladi. Hududiy farqlarni ham hisobga olsak, viloyatning har bir tumanida aholi migratsiyasi darajasi turlicha bo'lib, bunga mahalliy iqtisodiy omillar ta'sir qilgan bo'lishi mumkin.

Viloyat aholisining respublikadan tashqariga chetga ishlashga ketganlarning ayollar va erkaklar ulushini tahlil qiladigan bo'lsak, 2024-yilda Samarqand shahar aholisi jami 58,9 ming kishini tashkil qilsa, shundan ayollar 26.3 ming kishi (44,7 foiz) va erkaklar esa 32,6 ming kishini (55,3 foiz) tashkil qiladi, Kattaqo'rg'on shahar aholisi jami 9,8 ming kishi bo'lsa, shundan ayollar 3,8 ming kishi erkaklar esa 6,0 ming kishini tashkil qiladi. Bulung'ur tumanining jami chetga ketganlar soni 11,9 ming kishi: shundan ayollar 2,9 ming kishi va erkaklar esa 8,9 ming kishi. Jomboy tumani chetga ketganlar jami 14,5 ming kishi shundan ayollar 3,2 ming kishi, erkaklar esa 11,3 ming kishini tashkil qiladi. Ishtixon tumani jami chetga ketganlar soni 13,1 ming kishi: shundan ayollar 2,6 ming kishi va erkaklar 10,5 ming kishini tashkil qilgan.

Janubiy Koreyaga borib mehnat qilganlarning aksariyat qismi, ya'ni 40% – Toshkent viloyati va 23,5% – Toshkent shahri aholisi bo'lganligi o'tkazilgan suhbatlarda aniqlandi. O'rganishlar davomida uzoq xorijga borgan migrantlarning yarmidan ortig'i (53,6%) Toshkent shahridan bo'lganligi kuzatildi. Tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solishga oid davlat siyosati natijasida so'nggi yillarda uzoq xorijda mehnat qiluvchi migrantlar soni ortib bormoqda va buni dinamikada kuzatish mumkin.

4-jadval.

Davlat tomonidan sharoit yaratib berilsa, migrantlar borishni xohlagan davlatlar to'g'risida ma'lumot, %

Hududlar	Rossiya	Qozogiston	Turkiya	Janubiy Koreya	Yaponiya	BAA	AQSh	Boshqa davlatlar	Hech qaysi davlatga bormaydi
O'zbekiston Respublikasi	40,8	4,5	11,5	30,5	5,2	4,7	17,6	10,8	14,3
Samarqand	52,4	0,8	8,8	26,8	4,8	2,4	3,6	5,2	8,0

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Samarqand viloyatida aholi migratsiyasi rivojlanishining istiqbol yo'nalishlari” deb nomlangan. Unda Samarqand viloyati ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida aholi migratsiyasining istiqbollari, mehnat bozorini tartibga solishda aholi migratsiyasining yo'nalishlari ochib berilgan.

Samarqand viloyatdagi mehnat resurslarining katta qismini chet elga ishlash uchun chiqib ketayotgan fuqarolar tashkil qiladi. Ayniqsa, Samarqand tumani va Pastdarg'om tumanlari xorijiy migratsiyada yuqori ko'rsatkichlarni qayd etgan. Yosh va jins kesimidagi tahliliga keladigan bo'lsak, 18 yoshga to'lmaganlar soni kam bo'lsa-da, 18-30 yosh orasidagi aholi orasida xorijda ishlashga ketganlar ko'p. Bu yosh guruhidagi yuqori raqam Samarqand viloyatida yoshlarning xorijga ketishi tendensiyasi borligini ko'rsatadi. Sohalar bo'yicha taqsimotga ko'ra xorijga ketgan fuqarolar asosan sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, va xizmat ko'rsatish kabi sohalarda ishlashga ketishgan. Sanoat va ishlab chiqarish sohasida ishlayotganlar soni 59,9 ming qurilish sohasida 72,2 ming kishi, qishloq xo'jaligida 59,9 ming kishi va xizmat ko'rsatish va servis sohasida 141,9 ming kishini tashkil etadi. Eng ko'p kishilar xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan.

